

"MUVOZANAT" ROMANIDA MODDIYAT VA MA'NAVIYAT TO'QNASHUVI TALQINI

Yarashova Dinora Dilshod qizi

Qarshi davlat universiteti adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)

fakulteti 1-kurs magistranti

Iqtibos: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz."

Shavkat Mirziyoyev

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 08.02.2026

Revised: 09.02.2026

Accepted: 10.02.2026

KALIT SO'ZLAR:

*Muvozanat, Yusuf,
Mirazim, moddiyat,
ma'naviyat, intellektual
nasr, ruhiy inqiroz,
badiiy psixologizm.*

Ushbu maqolada taniqli adib Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romani zamonaviy o'zbek adabiyotidagi o'rni va badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida asar bosh qahramoni Yusuf timsolida ma'naviy ideallar va ijtimoiy-iqtisodiy bosimlar o'rtasidagi ziddiyat yoritilgan. Maqolada moddiyat va ma'naviyat tarozi pallalarining buzilishi shaxs fojiasi sifatida ko'rsatib beriladi.

Kirish

"Prezidentimiz ta'kidlaganidek, jamiyatda iqtisodiy farovonlik va ma'naviy yetuklik muvozanati o'ta muhim masaladir. Ulug'bek Hamdamning 'Muvozanat' romani ham aynan mana shu 'tan' (moddiyat) va 'ruh' (ma'naviyat) o'rtasidagi ziddiyatlarni, ularning hayotiy muvozanati buzilganda shaxs va jamiyat qanday fojialarga duch kelishini badiiy tahlil etgani bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi. Insoniyat tarixining har bir burilish nuqtasi adabiyotda shaxs konsepsiyasining yangilanishiga olib keladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki o'n yilliklar nafaqat siyosiy, balki ma'naviy-ruhiy transformatsiyalar davri sifatida ham tarixda qoldi. Bu davrda insoniyatning azaliy muammosi — moddiy tirikchilik va ma'naviy e'tiqod o'rtasidagi muvozanatning buzilishi o'ta keskin tus oldi.

=====

Muammoning qo'yilishi. Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romani aynan mana shu tarixiy va ruhiy bo'shliqni badiiy tadqiq etgan asar sifatida alohida mavqega ega. Romanning markazida turgan "muvozanat" tushunchasi shunchaki iqtisodiy barqarorlik emas, balki shaxsning o'zligini saqlab qolish va tashqi olam bilan uyg'unlikda yashash imkoniyatidir.

Metodologiya

Tadqiqot jarayonida adabiyotshunoslikning quyidagi metodlaridan foydalanildi:

Psixologik tahlil: Qahramonning ichki "men"idagi evrilishlarni ochish uchun.

Qiyosiy-tipologik metod: Jamiyatdagi turli qatlam vakillari (Yusuf, Said, Amir va Mirazim) o'rtasidagi qadriyatlar tizimini solishtirish uchun.

Germenevtik tahlil: Matndagi yashirin ramzlar va badiiy detallarni talqin qilish uchun.

Asosiy qism: obrazlar antitezasi va badiiy tahlil

Insoniyatda ikki katta ehtiyoj mavjud: Ruhiy va moddiy ehtiyoj. Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak deganlaridek inson ham har ikkisisiz bus-butun bo'lolmaydi. Bularni asarda turli qahramonlarning hayot tarzi, dunyoqarashidagi turfaliklar va duch kelgan qiyinchiliklar orqali ham ko'rishimiz mumkin. "Muvozanat" romanining g'oyaviy markazida ikki xil dunyoqarash to'qnashuvi yotadi. Yozuvchi bu to'qnashuvni ikki xil qutbdagi obrazlar orqali mahorat bilan tasvirlaydi.

Yusuf: Ma'naviyatning fojiali himoyachisi. Bosh qahramon Yusuf — sof ma'naviyat odami. Uning fojiasi shundaki, u o'zining sof insoniy tamoyillaridan voz kecha olmaydi, lekin shafqatsiz moddiy ehtiyojlar uni tinimsiz ta'qib qiladi. Vaqtida "Dunyoning tayanch nuqtasi" deya ta'riflangan Yusuf Rahimovning universitetni tashlab moddiy qiyinchiliklar tufayli savdo-sotiqqa o'tib ketishi — ma'naviyatning moddiy dunyo bosimi ostida ezilishini ko'rsatuvchi eng kuchli ramziy sahnalardan biridir. Lekin Yusuf asl o'zligini ichidagi "men"ni o'ldirolmaydi, unga qarshi chiqolmaydi. Qanchalik qiyinchiliklarga duch kelmasin, ichki "men"i g'olib keladi. Moddiy ehtiyoj uning oilasidan, farzandidan ajralishiga sababchi bo'lsa-da, hatto moddiy ehtiyoj tufayli do'sti Mirazimning oldiga bosh egib borsa-da ("Arslonni qashqir oldiga keltirgan ehtiyojdir, ehtiyoj") baribir ichki ovoz uni yana universitetga yetaklaydi.

Mirazim: Moddiyatning g'alabasi. Mirazim — Yusufning mutlaq aksi. U yangi davrning "uddaburron" kishisi. Uning uchun muvozanat faqat pul va moddiy farovonlikda. Mirazim ma'naviyat va ilm-fanni vaqtni bekorga sarflash deb biladi. U orqali muallif jamiyatning ma'naviy qashshoqlashish xavfini ko'rsatib beradi. Yozuvchining o'zi aytganidek: "Mirazimni nima jin urib tarix institutiga olib keldi – o'zi ham bilmaydi. Ehtimol, "diplomli odam diplomsizdan bir kalla yuqori turadi" degan o'sha vaqtdagi aqidaning mevasidir bu." Aslida Mirazimning hayoti moddiyatning g'alabisimi yoki orzulardan mahrum, hech bir maqsadsiz, hayotga bo'lgan qiziqishi xuddi o'yinchoqdan

zerikkan boladek hech bir quvonchsiz ruhiyatning qulashimi? Inson orzular, maqsadlar uchun yashar ekan, har qanday moddiyatga erishgan insonda na maqsad bor, na orzu.

Said — o'zining orzu-umidlarini, balki vijdonining bir qismini ro'zg'or g'ori uchun qurbon qilgan kishi. Agar Yusuf asarning "ruhi" bo'lsa, Said uning "og'ir ijtimoiy yuk"ini ko'tarib yurgan qismidir. Uning obrazi orqali muallif shunday g'oyani beradi: Moddiy yetishmovchilik insonni nafaqat jismonan, balki yaqinlaridan ham uzoqlashtiradi. Yusuf fojiaiy idealist bo'lsa, Mirazim g'irt pragmatik (faqat moddiyatchi). Said esa bu ikki qutb orasidagi aroasatda qolgan qatlam vakili. U yomon odam emas, lekin hayotning shafqatsiz shartlari uni o'zgartirgan. U oilasini boqish, tirikchilik qilish ilinjida ma'naviy qadriyatlarni ikkinchi darajaga surishga majbur bo'lgan shaxs. "Said — jamiyatning o'rtacha qatlami. U Yusuf kabi baland uchmaydi, lekin Mirazim kabi butunlay tubanlashmagan. Uning fojiasi — muvozanatni topaman deb, eng yaqin jigaridan (Yusufdan) ma'naviy uzoqlashib qolganidir."

Amir - Ma'naviy muvozanatning timsoli. Agar Yusuf muvozanatni qidirayotgan bo'lsa, Amir — bu muvozanatni topgan odam. U moddiy dunyo lazzatlaridan voz kechgan, nafsini jilovlagan va haqiqiy erkinlikni o'z ichki dunyosidan topgan shaxs. U "dunyo ichra bo'lib, dunyodan bo'lmaslik" (tasavvufiy ma'nodagi *hilvat dar anjuman*) g'oyasini o'zida mujassam etadi. Amir obrazi orqali yozuvchi ekzistensializm (insonning yashash mazmuni) masalasini ko'taradi. U jamiyat belgilagan "yutuq" o'lchovlarini (boylik, martaba) rad etadi. Uning uchun eng katta yutuq — o'z vijdoni va Yaratuvchi oldidagi poklikdir. Amir — asardagi 'Nuh kemasi' kabi obrazdir. U Yusufni (va o'quvchini) moddiyat to'fonlarida g'arq bo'lishdan qutqarib qoladi. Amir obrazi orqali muallif kitobxonni 'Muvozanat' faqat tashqi dunyoda emas, balki insonning o'z qalbida o'rnatilishi kerakligiga ishontiradi

"Muvozanat" romanidagi obrazlar tizimi shunchaki qahramonlar majmuasi emas, balki insoniyat oldida turgan turli tanlovlar ifodasidir. Muallif har bir personaj orqali moddiyat va ma'naviyat o'rtasidagi masofani turlicha o'lchaydi.

1. Yusuf va Mirazim: Antiteza (Ziddiyat). Asarning asosiy to'qnashuvi shu ikki qahramon o'rtasida kechadi. Yusuf — ma'naviyatini sotishdan ko'ra qiynalishni afzal ko'rgan intellektual qahramon. Mirazim esa aksincha, insoniylikni moddiy boylikka almashgan, bozor iqtisodiyotining "yovvoyi" qoidalariga moslashgan shaxs. Ular o'rtasidagi nizo — jamiyatning qaysi yo'ldan ketishi kerakligi haqidagi azaliy bahsdir.

2. Said: Arosatdagi inson (Reallik). Yusufning akasi Said obrazi orqali o'tish davri kishisining kundalik tashvishlari ochib beriladi. Said Mirazim kabi yomon emas, lekin Yusuf kabi irodali ham emas. U ro'zg'or va tirikchilik yuki ostida ma'naviy qadriyatlarni ikkinchi darajaga surishga majbur bo'lgan qatlam vakili. Uning fojiasi — yaqin jigaridan moddiy manfaatlar tufayli ruhan uzoqlashishidir.

3. Amir: Ma'naviy mayoq va Ustoz. Amir — asarning falsafiy cho'qqisi. Agar Yusuf muvozanatni izlayotgan bo'lsa, Amir uni topgan odamdur. U tasavvufiy dunyoqarashga

=====

yaqin, nafsini jilovlagan va haqiqiy erkinlikni moddiyatdan voz kechishda deb bilgan shaxs. U Yusufga (va o'quvchiga) dunyo shovqinlari ichida qanday qilib o'z qalbini asrab qolish mumkinligini o'rgatadi.

Ulug'bek Hamdam "Muvozanat"da o'quvchiga voqealarni shunchaki hikoya qilmaydi, balki detallar orqali kishini mushohadaga chorlaydi.

1. "Kitob" ramzi – Ma'naviyat qal'asi: Yusuf uchun kitob shunchaki qog'oz emas, u insoniyatning to'plagan ma'naviy xazinasini va o'zligining timsolidir. Yusufning moddiy tanqislik tufayli kitoblarini sotishi — bu uning o'z vujudini qismlarga bo'lib sotishi bilan barobar. Bu yerda kitobning qadrsizlanishi — jamiyatda ilm va ma'rifatning moddiyat (pul) oldida tiz cho'kayotganini anglatuvchi kuchli ramziy detaldir.

2. "Non" va "Pul" – Moddiy hayot zarurati: Asarda non — tirikchilik, jismoniy hayotni saqlab turuvchi vosita. Biroq u Yusufning qo'lida "og'riq"qa aylanadi. Agar kitob "ruh" bo'lsa, non "tan"dir. Yusufning fojiasi — bu ikki elementning bir-biriga muvofiq kelmay qolishidir. Pul esa Mirazim va Said obrazlarida insoniylikni o'lchovchi mezon bo'lib xizmat qiladi.

3. "Muvozanat" – Koinot va Inson qonuni: Romanning nomi asardagi eng katta ramzdir. Germenevtik nuqtai nazardan, muvozanat — bu tarozi. Tarozi pallalarining birida insonning nafsiy ehtiyojlari (Mirazim), ikkinchisida esa ilohiy-ma'naviy ehtiyojlari (Amir) turadi. Yusuf — bu tarozining tili bo'lib, u qaysi tomonga og'ishini bilmay iztirob chekayotgan zamonaviy inson timsolidir.

4. "Amirning kulbasi" – Poklanish hududi: Amir yashaydigan sharoit va uning atrofi — dunyo shovqinlaridan xoli, nafs o'lgan hududni bildiradi. Bu joy romanda "ma'naviy o'lcham" ramzi bo'lib, u yerda vaqt va pul o'z qiymatini yo'qotadi. Bu detal o'quvchiga haqiqiy erkinlik narsalarga egalik qilishda emas, balki ulardan voz kecha olishda ekanini uqtiradi.

Xulosa

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romani tahlili shuni ko'rsatadiki, asarda ilgari surilgan moddiyat va ma'naviyat to'qnashuvi shunchaki davr muammosi emas, balki insoniyatning azaliy va abadiy kurashidir. Tadqiqot davomida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Obrazlar tizimining yaxlitligi: Muallif Yusuf, Mirazim, Said va Amir obrazlari orqali inson ruhining to'rt xil holatini mahorat bilan chizib bergan. Yusuf — izlanuvchi ruh, Mirazim — moddiy nafs, Said — ijtimoiy majburiyat, Amir esa — ma'naviy kamolot timsolidir. Ushbu qahramonlar o'rtasidagi munosabatlar jamiyatning ma'naviy xaritasini hosil qiladi.

Muvozanatning falsafiy mohiyati: Asar nomi — "Muvozanat" — hayotning oltin o'rtaligini topish zarurligiga ishora qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, haqiqiy muvozanat

faqat tashqi (iqtisodiy) farovonlikda emas, balki Amir obrazi orqali ko'rsatilganidek, insonning o'z ichki dunyosi, vijdoni va Yaratuvchi bilan uyg'unligidadir.

Yusuf fojiasining ma'nosi: Yusufning moddiy dunyoda "mag'lub" bo'lishi — uning ma'naviy tanazzuli emas, balki jamiyatning ma'naviy inqiroziga berilgan badiiy bahodir. Uning har qanday qiyinchilikda ham insoniylik va ilm yo'lini tanlashi ma'naviyatning moddiy ustidan axloqiy g'alabasini isbotlaydi.

Adabiy ahamiyati: "Muvozanat" romani o'zbek adabiyotida intellektual nasr an'alarini boyitdi. Ulug'bek Hamdam asar orqali o'quvchini shunchaki voqealar ketma-ketligi bilan emas, balki chuqur falsafiy mushohada va ruhiy tahlillar bilan boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, "Muvozanat" romani bugungi globallashtirish va moddiylashtirish dunyoda inson o'zligini qanday saqlab qolishi mumkinligi haqidagi savolga javob izlovchi o'lmas asardir. Ozod Sharafiddinov aytganidek: "adabiyotimizda realism imkoniyatlari hali to'la ochilgani yo'qligini ta'kidlagan edilar. "Muvozanat" o'zbek nasrining ayni shu imkoniyatlardan kengroq foydalanish yo'lidagi dadil va muvaffaqiyatli qadamlaridan biri o'laroq dunyoga kelgandir"

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamdam, U. Muvozanat: Roman. – Toshkent: "Sharq", 2003.
2. Yo'ldoshev, Q. Yoniq so'z. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2006.
3. Karimov, B. Yangilanish sog'inchi. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2004.
4. Rasulov, A. Badiiy tahlil mezonlari. – Toshkent: "Fan", 2001.